

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

AL-BUKHARI

Scientific journal

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

ISSN: 3030-3273

AL-BUKHARI

Scientific journal



ORIENTAL
UNIVERSITETI

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

(uchinchi son)

Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qaroriga muvofiq tarix va filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga "Al-Buxoriy" ilmiy jurnali kiritilgan.

Toshkent – 2025

Bosh muharrir:

Farhod Maksudov, tarix fanlari doktori (DSc)

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Malika Nasirova, filologiya fanlari nomzodi, professor

Mas’ul muharrir:

Govhar Rahmatova, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)



“Al-Buxoriy”

ilmiy jurnalining tahrir hay’ati:

- | | |
|----------------------------|---|
| 1. Azamat Ziyo | t.f.d., akademik, professor – tahrir hay’ati a’zosi; |
| 2. Zohidjon Islomov | f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi; |
| 3. Shorustam Shomusarov | f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi; |
| 4. Durdona Lutfullayeva | f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi; |
| 5. Komiljon Rahimov | t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi; |
| 6. Shamsiddin Kamoliddinov | t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi; |
| 7. Xolida Alimova | f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi; |
| 8. Aftondil Erkinov | f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi; |
| 9. Albert Burxanov | t.f.d., akademik (Tatariston) – tahrir hay’ati a’zosi; |
| 10. Samal Tuleubaeva | f.f.d., professor (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi; |
| 11. Sayfullo Mullodjanov | t.f.d., professor (Tojikiston) – tahrir hay’ati a’zosi; |
| 12. Zilola Xudoyberganova | f.f.d., professor (Turkiya) – tahrir hay’ati a’zosi; |
| 13. Akram Habibullayev | t.f.d., professor (AQSh) – tahrir hay’ati a’zosi; |
| 14. Ashirbek Mo‘minov | t.f.d., dotsent (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi; |
| 15. Murtazo Saidumarov | f.f.n., professor (Saudiya Arabistoni) – tahrir hay’ati a’zosi. |

MUNDARIJA

FILOLOGIYA

Sodiqov Qosimjon Pozilovich

Alisher Navoiyning uygʻur xatidagi ijodi 4

Turdiyev Jahongir Zafariddin oʻgʻli

Eski uygʻur xati va uning yozuv prinsiplari (“Meʼrojnom” asari misolida) 15

Karimova Shahlo Gʻaniyevna

Uygʻur-oʻzbek shoiri Nasrulloh Qori Farhatiy hayoti va faoliyati, adabiy merosi 25

Sotvoldiyev Sirojiddin Maxammaddin oʻgʻli

“Al-Musallas” lugʻatining arab leksikografiyasi rivojidagi oʻrni 36

Tashmuxeimedova Dildora Aziz qizi

Xitoy va oʻzbek tillaridagi taqlid soʻzlarning morfologik tipologiyasi 45

Talipov Nodir Batirovich

Abdulqohir Jurjoniying “al-ʻAwāmil al-miʻa” asarida taʼsir nazariyasi va uning arab sintaksisidagi ahamiyati 56

Ikromjonov Akmaljon Makhmudjonovich

Independent and Auxiliary Verbs in Arabic: Grammatical and Semantic Analysis ... 67

TARIX

Qoʻldashev Sherali Temiraliyevich

Qoʻlyozmalar diplomatiyasi: Amir Haydar buyurtma qilgan diniy asarlar taqdiri 76

Саипова Камола Давляталиевна

Октябрьская революция и её воздействие на этнодемографию Туркестана (1918-1924 гг.) 88

Pasilov Baxodir Abdullayevich

Markaziy Osiyoda oʻtkazilgan milliy-hududiy chegaralanish siyosatining chet el tarixshunosligidagi oʻrganilishi 100

Sattorov Nurbek Abdurazzoqovich

Qutchi urugʻining tarixi va etnogenezi masalasi 109

Norkulova Gulida Sodikovna

Ishtixon manzilgohidagi arxeologik tadqiqotlar: qadimgi ossuariylarning oʻrganilishi masalalari 116

Yunusov Komiljon Alimdjanovich

Muzeylarda boburiylar mavzusi yoritilishiga doir tarixiy-etnologik masalalar 124

Abdurasulov Akmal Oʻralovich

Totemizizm va fetishizmning bugungi kun turmush tarzida aks etishi 134

ALISHER NAVOIYNING UYG'UR XATIDAGI IJODI
ALISHER NAVAI'S POETIC WORKS IN THE UYGHUR SCRIPT
ТВОРЧЕСТВО АЛИШЕРА НАВАИ НА УЙГУРСКОМ ПИСЬМЕ

Sodiqov Qosimjon Pozilovich

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori,

filologiya fanlari doktori

Tel.: +998 99 840-60-54

E-mail: rixsitilla@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola Alisher Navoiyning uyg'ur xatidagi yagona g'azalining ilmiy tahliliga bag'ishlangan. Unda Temuriylar davrida uyg'ur yozuvining turkiy adabiyot va madaniyatdagi o'рни ochib beriladi. Tadqiqotning maqsadi Navoiy ijodida yozuv madaniyatining ahamiyatini ko'rsatish, g'azalning ko'chirilish tarixini va uning uyg'ur yozuvli asl nusxadan olinganligini isbotlash, shoir taxallusining talaffuzini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda tarixiy-genetik, lingvistik va qiyosiy tahlil usullari qo'llanilib, qo'lyozmalar va tarixiy manbalar tahlil qilindi. Navoiy g'azali uyg'ur yozuvli asl qo'lyozmadan ko'chirilgani, she'rning dastlabki varianti keyinchalik qayta ishlangani va shoir taxallusining Navāyî shaklida talaffuz qilingani isbotlandi. Uyg'ur yozuvi Temuriylar davrida yetakchi yozuvlardan biri bo'lganligi va Navoiy uni yaxshi bilganligi xulosa qilindi. Ushbu tadqiqot turkiy yozma merosni saqlash va turkologiya tadqiqotlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: eski turkiy yozuvlar, uyg'ur xati, arab xati, qo'lyozma kitoblar, yozuv madaniyati, kitobat ishi, Temuriylar davri, eski o'zbek tili, o'zbek mumtoz adabiyoti.

Abstract: This article is devoted to the scientific analysis of Alisher Navoi's one ghazal written in Uyghur script. It reveals the role of Uyghur writing in Uzbek (Turkic) literature and culture during the Timurid era. The aim is to show the importance of written culture in Navoi's work, to prove the history of the ghazal's copying and its origin from the original manuscript in Uyghur script, and to determine the pronunciation of the poet's pen name. The study uses historical-genetic, linguistic, and comparative analysis methods, and analyzes manuscripts and historical sources. It is proven that Navoi's ghazal was copied from the original manuscript in Uyghur script, the initial version of the poem was later revised, and the poet's pen name was pronounced in the Turkic version as Navāyî. It is concluded that Uyghur writing was one of the leading scripts during the Timurid era and Navoi was well versed in it. This research contributes to the preservation of Uzbek written heritage and the development of Turkic studies.

Keywords: *Old Turkic scripts, Uyghur script, Arabic script, manuscript books, writing culture, bookmaking, Temurid period, Old Uzbek language, Uzbek classical literature.*

Аннотация: Данная статья посвящена научному анализу единственного газеля Алишера Навои, написанного уйгурским письмом. В ней раскрывается роль уйгурской письменности в узбекской литературе и культуре эпохи Темуридов. Цель - показать значение письменной культуры в творчестве Навои, доказать историю переписывания газеля и его происхождение из оригинальной рукописи уйгурским письмом, определить произношение псевдонима поэта. В исследовании использованы историко-генетический, лингвистический и сравнительный методы анализа, проанализированы рукописи и исторические источники. Доказано, что газель Навои переписан с оригинальной рукописи уйгурским письмом, первоначальный вариант стихотворения был впоследствии переработан, а псевдоним поэта произносился в тюркском варианте как Navāyî. Сделан вывод, что уйгурская письменность была одной из ведущих в эпоху Темуридов и Навои хорошо ею владел. Данное исследование служит сохранению узбекского письменного наследия и развитию тюркологических исследований.

Ключевые слова: *старо-тюркские письменности, уйгурская письменность, арабская письменность, рукописные книги, письменная культура, книжное дело, период Темуридов, старо-узбекский язык, узбекская классическая литература.*

KIRISH

Temuriylar davri yozuv madaniyatida o'tmish an'alariga, ota-bobolardan qolgan eski yozuvlarga e'tibor katta edi. Temuriylar davlatida tarixnavislik, badiiy adabiyot, ta'lim va fan sohasi, davlat devonxonalari va hujjatchilik ishlarida, xalqaro rasmiy-diplomatik munosabatlarda ikki xil yozuv – eski uyg'ur (Navoiy so'zi bilan aytganda *türkçä xat*) va arab yozuvi (*nasta'liq xat*) ishlatilgan. Shuning uchun ham o'zbek klassik adabiyotining o'sha chog'lardan qolgan yozma merosi ikki xil yozuvda yetib kelgan: turkiy adabiy asarlarning eski, qadimiy qo'lyozmalari ko'proq uyg'ur xatida bitilgan bo'lsa, keyingi davrlarga tegishlilari arab xatida.

XV yuzyilning o'rtalariga kelib uyg'ur yozuvi iste'moldan chiqib, o'rnini arab alifbosi negizidagi turkiy yozuv egallay boshladi. Uyg'ur yozuvi ishlatilmay qo'yilgach, xon va beklarning kutubxonalari demaganda, qora ulus orasida qadimgi turkiy yozuvdagi kitoblarni saqlashga zarurat qolmagan ko'rinadi. Eski turkiy yozuvdagi asarlarning ko'pi yo'qolib ketgani, arab xati bilan ko'chirilgan nusxalari ko'proq saqlanganining sababi ham shunda. Bugungi kunimizga qadar yetib kelgan uyg'ur yozuvli qo'lyozmalarning soni oz, shunday esa-da, ular temuriylar davri yozuv madaniyati to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradi.

Temuriylar zamonida bitilgan uygʻur yozuvli bebaho obidalarining ayrimlari va, aytish mumkinki, eng nodirlari bugungi kungacha yetib kelgan (Илєпѓак А., 1962: 31-35, 46-49; Sertkaya O., 1977: 7-18).

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Turkiy xalqlarning yozuv madaniyati tarixida XIV–XV yuzyillar qadimgi turkiy yozuvdan arab xatiga oʻtish davri sanaladi. Shunga qaramay, badiiy adabiyot, tarixnavislikda, shu qatorda davlat hujjatchilik ishlari, xalqaro diplomatik munosabatlarda uygʻur xatining mavqeyi yuqori edi. Qadimgi turk yozuv anʼanasini saqlab, turk islom dunyosida uygʻur xatini keng koʻlamda soʻnggi bor qoʻllagan ham temuriylardir.

Ayrim ilmiy asarlarda, Amir Temur oʻz saltanatida Chingizxonga vorislik jihatidan uygʻur xatiga katta eʼtibor bergan, degan qarashlar ham uchrab turadi. Bu fikr toʻgʻri emas. Chunki Chingizxonning oʻzi moʻgʻul xatini turkiy xalqlar, xususan, uygʻurlardan olgan edi. Sohibqiron Temurbek uygʻur xatini keng qoʻllashda uzoq ajdodlari boʻlmish qoraxoniylarga ergashdi. U oʻz saltanatining rasmiy ishlarida, ichki hamda tashqi diplomatik munosabatlarida, badiiy adabiyot sohasida, ilm kishilari orasida ota-bobolardan meros qolgan uygʻur xatining keng amal qilishiga xayrixohlik qildi va buning ijrosiga katta eʼtibor qaratdi.

Oltin oʻrda hamda Temuriylar davlatida uygʻur xatining keng amal qilganligi tarix kitoblarida ham qayd etib oʻtilgan. Mashhur tarixchi Ibn Arabshoh oʻzining «Ajoibu-l-maʼqdur fi navoibi Taymur» deb atalgan kitobida uygʻur xatining tarixi toʻgʻrisida yaxshi maʼlumot bergan. Tarixchi yozadi: «Ular (chigʻatoyliklar – Q.S.) oʻzlarining tilxat, maktub, farmon, xat, kitob, bitim, solnoma, sheʼr, qissa, hikoyat, hisob, xotira va devonga tegishli hamma ishlarini, chingizona tuzuklarini shu yozuvda yozadilar. Bu yozuvni yaxshi bilgan ularning orasida xor boʻlmaydi, chunki bu (yozuv) ularda rizq ochqichidir» (Рыстамов А., 1976: 39-42).

Ibn Arabshoh ushbu maʼlumotida «Ular oʻzlarining tilxat, maktub, farmon, bitim va devonga tegishli hamma ishlarini, chingizona tuzuklarini shu yozuvda yozadilar» deganda davlat ishlari, xalqaro diplomatik munosabatlarda, tarixnavislikda uygʻur xatining mavqei yuqori ekanini koʻzda tutgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot Temuriylar davri (XIV–XV asrlar) yozuv madaniyatida qadimgi turkiy (uygʻur) xati va arab alifbosi negizidagi yozuvning parallel ishlatilishi, ularning davlat hujjatchiligi, diplomatik munosabatlar, badiiy adabiyot va ilmiy faoliyatdagi rolini oʻrganishga qaratilgan. Tadqiqot filologiya, paleografiya va tarixiy lingvistika fanlari kesishmasida olib borilgan boʻlib, manbashunoslik, paleografik tahlil va matnshunoslik usullariga asoslanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Uygʻur xati Temuriylar davlatining rasmiy yozuvlaridan edi. Temuriylar oʻz yorliqlarini, rasmiy hujjatlarini, hatto chet ellarga yuboriladigan xatlarini ham uygʻur yozuvida bitganlar. Uygʻur xati devon ishlarida, rasmiy-diplomatik yozishmalarda keng ishlatilgan. Temurbek oʻz yorliqlarini, qoʻshni ellarning hukmdorlariga yoʻllagan maktublarini uygʻur xatida va turkiy tilda yozdirgan, temuriylarning shajaralari ham ayni yozuvda. Temurbekning oʻlimidan keyin Shohrux va Mirzo Ulugʻbek, Abu Said mirzo va uning oʻgʻli Umarshayx mirzo ham oʻz devonida, davlat ishlarida qadimgi turkiy alifboni keng qoʻllagani maʼlum (Sodiqov Q., 2016: 141-158). Bu yozuvni Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur ham yaxshi bilgan.

XV yuzyilning boshlarida hali eski turkiy yozuvning mavqei yuqori boʻlib, oʻsha kezlardagi ijod ahli, xususan, Mavlono Lutfiy, Sakkokiy singari katta avlod kishilarining xat-savodi uygʻur yozuvida chiqqan, ular oʻz asarlarini koʻproq uygʻur xatida yozganlar. Yuzyilning ikkinchi yarmiga kelib esa, arab yozuvining mavqei orta boshladi. Shuning taʼsirida yosh ijodkorlar oʻz asarlarini arab yozuvida bita boshlaganlar.

Navoiyning bobolari, otasi ham, el qatori, uygʻur xatini ishlatgan. Tarixchi Mirzo Muhammad Haydar «Tarixi Rashidiy» asarining toʻqson ikkinchi faslida Mir Alisher Navoiy toʻgʻrisida maʼlumot bera turib, «Ularning otalarini «andakkina baxshi» deyurlar» deb yozgan edi. Tarixchining bu yozganlari Navoiyning otasi baxshi oʻtganidan darak beradi; uni Gʻiyosiddin baxshi deb ataganlari ham bejiz emas. Temuriylar zamonida uygʻur xatida yozuvchi kotibni *baxshi* deganlar. Yana hujjat ishlari bilan shugʻullanuvchi amaldorni ham bildirgan bu atama.

Navoiy ham yoshlik yillari uygʻur xatini yaxshigina oʻzlashtirgan, ilk sheʼrlari ichida oʻsha yozuvda bitilganlari ham boʻlishi kerak, keyinchalik zamon oʻzgarishiga qarab, arab yozuviga eʼtibori ortgan koʻrinadi. Jumladan, u sulton Husayn Boyqaroning oʻgʻli Badiuzzamonga yozgan maktubida (bu xati «Munshaot»ga kirgan) xatlarning oʻqish uchun qulay yo qiyinligi toʻgʻrisida fikr yurita turib, uygʻur xatini ham eslaydi; uni *türkçä xat* deya tilga oladi. Navoiy yozadi: Yana ul-kim, har türlüğ 'arḍadāšt-kim, yuqarī bitilsä, nasxta'liq xattī bilä andaq xvānā bitilsä-kim, oqurda oqur kišigä tašvīš tegmäsä, türkçä xat (ترکجه خط) bilä xūd ašlā bitilmäsä-ki, bu bābda dayī qavle bar (Mun.398a,23–25).

Navoiyning yoqlashicha, har turli hujjat va maktublar, oʻqish qiyin boʻlgan turkcha xatda emas, jamoaga oʻngʻay nasxta'liqda yozilgani maʼquldir.

Bunday deganining sababi shundaki, undosh tovushlarni ifodalashda uygʻur xatining oʻziga yarasha qiyinchiligi bor edi. Yozuvda [k] bilan [g], [b] bilan [p], [s]–[z], [t]–[d], [q]–[ɣ]–[x], [č]–[j] –[ž] undoshlari bir xil harflar bilan ifodalangan. Yana

rasmiy hujjatlar va maktublarda harflarni farqlovchi nuqtalar va turli ishoratlar ko'p ham ishlatilmagan.

Alisher Navoiy birovga yo'llanadigan xatni *türkçä xat bilä xūd ašlā bitilmäsä-ki, bu bābda dayi qavle bar* deganda yozuvning ana shu murakkabligini ko'zda tutgan.

Yana bir jihati, Navoiy ushbu maktubini yoshi ulg'aygan, uyg'ur xati ancha iste'moldan chiqib, arab xati ommalashgan chog'da bitganini ham unutmashlik kerak.

Boshqa bir misol, Navoiyning arab alifbosidagi harflarning ko'rinishiga tashbeh qilib yozilgan baytlarini adabiyotshunoslar yaxshi biladi. Buni qarangki, uning she'rlari orasida uyg'ur alifbosidagi harflarning ko'rinishiga ishora qilib yozilgan baytlari ham bor ekan.

Navoiyning «Badoeu-l-vasat» devonida oxiri *mīm* harfi bilan tugovchi g'azallar sirasida quyidagi bayt bilan boshlanuvchi g'azal bor:

Barmu ul ikki örülgän gesü-yî 'anbar šamīm,

Yā etäk salmīš Muḥammad da yazilyan ikki mīm (Badoeu-l-vasat, 571a, 19).

Keltirilgan baytda *ikki* so'zidagi *kāf* ning ustiga ham, *Muḥammad* so'zidagi *mīm* ning ustiga ham tashdid belgisi qo'yilgan.

Ushbu baytda go'zalning ikkita qilib o'rilgan sochi *Muḥammad* so'zidagi ikkita *mīm* harfining etak yozib turgan holatiga o'xshatilmoqda. Nihoyatda chiroyli, mantiqli tashbeh.

Endi shu aytilganlarning ma'nosini ochishga chog'lanib ko'ramiz.

Muhimi shundaki, arab xatida *Muḥammad* so'zi o'rtada bitta *mīm* bilan yoziladi va uning ikkita o'qilishiga ishora qilib tashdid belgisi qo'yib qo'yiladi (محمد). Yana bu o'rinda *mīm* harfining etak yozgan (*etäk salmīš*) holati ham yo'q. U holda Navoiy nimaga ishora qilyapti o'zi?

Uyg'ur xatiga kelsak, *Muḥammad* so'zi bu yozuvda ikkita *mīm* bilan yoziladi; yana bir muhim belgisi, so'z ichidagi *mīm* harfining ostki elementi etak yozib turganga o'xshaydi (ميم).

Anglashiladiki, ushbu baytda Navoiy *Muḥammad* so'zining arab xatidagi yozilishiga emas, uning uyg'ur xatida so'z o'rtasida ikkita *mīm* harfi bilan yozilishi, harflarning ayni holatdagi ko'rinishiga ishora qilayotir.

Istanbulning To'pqopi saroyi arxividagi Boyazid IIga tegishli hujjatlar orasida 11980-D ko'rsatkichli matn saqlanmoqda. Uzunasiga yopishtirib ulangan ushbu ikki varaqqa har biri besh baytli uchta turkiy g'azal, adog'ida esa olti qatorli forsha tilak bitilgan. She'rlardan birinchisi Alisher Navoiyning g'azali, keyingilari esa usmonli shoirlaridan bo'lmish Baxtiyning unga yozgan naziralaridir (Sertkaya O., 1973: 6-9. Levha, I–III).

Gʻazallarning uchalasi arab xatida. Biroq, ularning sarlavhalari ikki xil yozuvli: avval uygʻur xatida bitilib, tagida uning oʻqilishi arab harflarida berilgan. Uygʻur yozuvidagisi qorada, uchi toʻmtoq qalam bilan, tagidagi arab harflarida berilgan, oʻqilishi esa, qizilda, uchi ingichka qalamda bitilgan. Boshlanishda Navoiy sheʼriga qoʻyilgan sarlavha tekis, undan keyingi sheʼrlar, har misrasi bir qatordan qilib, sarlavhalari bilan birga qiyalatib yozilgan. Matn boshdan oxir ikki yoqdan bir chiziqli ensiz jadvalga olingan.

Matnning oʻqilishi shunday: boshlanishiga uygʻur xatida *Huu* deb yozilib, tagma-tag arab harflarida *Hū* deb izohlab qoʻyilibdi. Matnchilik rusumiga koʻra, oʻrta asrlarning matnlari ana shunday unvon bilan ochilgan; maʼnosi «Oʻzi» degani, tangrining har narsaga qodirligi va buyukligiga ishora qilinadi bu unvon bilan. Oʻrtaliqda kattagina joy qoldirilib, soʻng satrlar orasida joy tashlab, toʻrt qatorga *Amlahu-š-šuʼarā / mavlānā / Navāyī / aytur* deb yozilgan. Bu sarlavha ham ikki xil yozuvda (Sertkaya O., 1973: 16b).

Ahamiyatlisi, shoirning taxallusi uygʻur xatida turkiy til talaffuziga moslab *Navāyī* (نَوَايِي) shaklida yozilgan. Tagidagi arab yozuvli shakli ham shunday: *nūn*, *vāv*, *alif*dan keyin ikkita *yā* yozilgan (نَوَايِي); *hamza* yoʻq. Darvoqe, Navoiyning arab yozuvli boshqa devonlarida ham shuning oʻzi. Agar shoirning taxallusi *hamza* bilan نَوَايِي yozilganda edi, uni *Navāyī* deb oʻqilsa boʻlardi; bu oʻrinda u نَوَايِي yozilyapti. Shunga koʻra, uni *Navāyī* deb oʻqilgani va ana shunday talaffuz qilingani toʻgʻri.

Navoiy gʻazalidan keyingi birinchi naziraga dona-dona qilib, *Javāb / aytur*, keyingisiga esa *Daxī bir / javāb / aytur* deb sarlavha berilgan; bu sarlavhalar ham uygʻur va arab yozuvlarida.

Oʻtmishdan qolgan uygʻur yozuvli bitiklar bir necha xil xat turiga ega. Ushbu matnda qoʻllangan yozuv «*ikkinchi guruh yodgorliklarining xat turi*»ga tushadi. Bu xat shakli, odatda, uygʻur xatida bitilib, tagma-tag arab xatida izohlab chiqilgan matnlarda qoʻllangan. U, boshqa xat turlaridan farqli oʻlaroq, qirrali koʻrinishga ega (V. Radlov tasnifidagi «hujjatlar yozuvi» – *Documentenschrift* ga toʻgʻri keladi) (Соди́ков К., 1992: 64-72).

Oltin Oʻrda xoni Temur Qutlugʻ, temuriy sulton Abu Saidning uygʻur yozuvida bitilgan yorliqlari ana shu xat turida, shuningdek, Istanbulda ijod etgan Abdurrazzoq baxshi ham qoʻlyozma asarlarni shu xat uslubida bitgan.

Ikkinchi va uchinchi sarlavhalardan keyin uning bir chekkasiga arab xati bilan qizilda *Bahtî-i muhlis* deb yozib qoʻyilibdi.

Matn oxirlagandagi forscha tilakda yozilishicha, shoir Baxtiy ushbu sheʼrlarini sultonga tortiq qilgan koʻrinadi. Mana buning isboti: *Agar ʼināyat-i ḍillu ilāhî bāšad īn manšib be-Baxtî-i muhlis himmat kunand davlat-i du jihānî mustadām bād* («Agar

podshohim inoyati nasib bo'lib, bu mansib Baxtiyga lutf aylansa, ikki dunyosi boqiy va saodatli bo'lsin»).

Navoiyning qog'ozga bitikli g'azali shunday o'qiladi:

*Seni körgäç der edim, bir mehrubānīm bar emiš,
Allāh-allāh, ne balā, bāṭil gumānīm bar emiš.*

*‘Āriziñ māhiyyatī ayzīñ sözin šarḥ äyläsām,
Vah ne tab‘-i pāk-u zehn-i xurda-dānīm bar emiš.*

*Čāk qıl köksümni ey bad-mehr, tāki bilgä-sen,
Tiy-i hajriñdin ne nav‘āzurda-jānīm bar emiš.*

*Ne ḥayāt erdi ölar ḥālatta-kim, körgäç anī
Nāz ilā dedi hanuz ul nātuvānīm bar emiš.*

*Der-ki, yalqiptur Navāyī ünidin vah yaxšidur
Kim, tirigligtin nišān-teg bir fiyānīm bar emiš.*

«G'aroyibu-s-sig'ar»ning Navoiy kulliyotlariga kirgan nusxalarida ushbu g'azal yetti baytdan iborat; to'rtinchi baytdan keyin unga yana ikki bayt qo'shilgan.

Baxtiyning Navoiy she'riga yozgan birinchi nazirasi shunday boshlanadi (matlasi):

*Pādšāhīm davrīda bir xuš zamānīm bar emiš,
Barča xavf-u ham xatardīn köp āmānīm bar emiš.*

So'nggi bayti (maqatasi):

*E‘tiqādlīq qullarīniñ yūzi Baxtī-deg külār,
E‘tiqādsīz yörügān ornī jahannam nār emiš.*

Ikkinchi naziraning boshlanishi (matlasi):

*Ul parī-rux-kim, anīñ ayzī ‘ajāyib tār emiš,
Körsä miñ zāhid küyüp, la‘l-i labīya zār emiš.*

So'nggi bayti (maqatasi):

*Baxtī gustāhliq qīlīp aydī Navāyīya javāb,
Ul yazalya bir javāb ayyu bu Rūmda bar emiš.*

Muhimi shundaki, shoir Baxtiyning she'rlari usmonlichada emas, eski o'zbek tilida bitilgan. Ikkinchi nazirada *Ul yazalya bir javāb ayyu bu Rūmda bar emiš* deya urg'ulanishiga qaraganda, usmonli she'riyatida o'zbek mumtoz adabiyoti, xususan, Navoiy merosiga katta e'tibor qaratilgan, usmonli shoirlar Navoiyga ergashib g'azallar bitgan.

Matnni ko'chirgan kishi noma'lum, yozilgan sanasi ham yo'q. Qizig'i shundaki, To'pqopi saroyi arxividagi Boyazid Ilga tegishli hujjatlar orasida 11980-B hamda 11980-C ko'rsatkichli matnlar ham bor. Bulardan birinchisi muallifi noma'lum bo'lgan o'n yetti baytli qasida, keyingisi esa Mavlono Lutfiyning besh baytli g'azalidir (Sertkaya O., 1973: 10-15). Ularning ikkovi ham uyg'ur xatida yozilib, tagma-tag arab harflarida o'qilishi keltirilgan. Xat uslubi yuqorida so'z borayotgan Navoiy va Baxtiy she'rlarining sarlavhalarida ishlatilgan xat turi bilan bir xil. Ushbu qo'lyozmalarning tarixi qiziq. I. Ertaylan bu qo'lyozmalarning bari Onado'liga Xuroson va Hirotidan keltirilgan degan fikrni bildirgan edi. Lekin U. Sertkaya bu qarashni inkor etadi. Uning xulosasiga ko'ra, bu qo'lyozmalar tashqaridan keltirilgan emas, ular XV yuzyilning 80-yillarida Istanbulda ko'chirilgan (Sertkaya O., 1973:14).

Istanbulda yashab ijod etgan baxshilardan biri Shayxzoda Abdurrazzoqdir. Uning kelib chiqishi Samarqanddan. Keyinchalik turk sultonining chorlovi bilan Istanbulga ko'chib borib, o'sha yerda uyg'ur yozuvli qo'lyozmalarni ko'chirish bilan shug'ullangan edi. Muhimi shundaki, Abdurrazzoq baxshining iltimosi bilan Samarqand va Hirot shaharlaridan u yerga uyg'ur yozuvli qo'lyozmalar yuborib turilgan. Jumladan, «Qutadg'u bilig»ning 1439-yili ko'chirilgan mashhur uyg'ur yozuvli Hirot qo'lyozmasi, «Hibatu-l-haqoyiq»ning 1444-yili Samarqandda Zaynul-Obidin baxshi ko'chirgan tayanch qo'lyozmasi ham Istanbulga uning so'rovi bilan jo'natilgani ma'lum. Abdurrazzoq baxshi «Qutadg'u bilig»dan yangi nusxa ko'chirganmi-yo'qmi, buni bilmaymiz. Lekin u 1480-yili «Hibatu-l-haqoyiq» qo'lyozmasini ko'chirdi. Abdurrazzoq baxshi yana uyg'ur xatida Mavlono Lutfiy, Sakkokiy she'rlarini ham ko'chirgan. U Istanbulda o'z maktabiga asos solgan taniqli baxshilardan edi.

Lekin Navoiy va Baxtiyning g'azallari bitilgan ushbu qo'lyozmani Abdurrazzoq baxshi ko'chirgan deya olmaymiz. She'rlardan keyin bitilgan forsha matnning mazmuniga qaraganda, ushbu she'rlarni shoir Baxtiyning o'zi ko'chirgan bo'lishi kerak.

Yana qo'lyozma xatining ko'rinishi ham ajralib turadi. Umumiy xat uslubi bir bo'lgani bilan, ular o'rtasida baxshining qalam tortish usuli bilan bog'liq farqlar bor. Masalan, Abdurrazzoq baxshi Lutfiy she'rlarini uyg'ur xatida ko'chirganda *daxi* so'zini <t> hafi bilan bergan, bu qo'lyozmada esa <d> bilan yozilgan. Yana Abdurrazzoq baxshi <d> harfini yozganda, uning tugash chizig'ini tepaga cho'zib qo'yadi, bu qo'lyozmada esa, tepaga tortib, uchi bir oz sindirib ham qo'yilgan va hokazo.

Aftidan, Baxtiy ustoz Abdurrazzoq baxshining qo'lida uyg'ur xatidan saboq olgan. Bizgacha saqlangan qo'lyozma esa uning o'z qo'lidan chiqqan.

Yanada muhimi, Navoiyning ushbu gʻazali arab yozuvli emas, uygʻur yozuvli boshqa bir qoʻlyozmadan koʻchirilgan. Asosiy qoʻlyozma ancha eski, shoirning yoshlik yillaridan qolgan koʻrinadi.

Boshqa bir jihati, bu gʻazal boshda besh baytli edi. Keyinchalik Navoiy uni qayta ishlab, yana ikki bayt qoʻshgan va devoniga sheʼrning keyingi variantini kiritgan. Shoir Baxtiy esa ushbu gʻazalni uning oʻsha uygʻur yozuvli qoʻlyozmasidan olgan deyish mumkin.

Anglanadiki, Alisher Navoiy ota-bobolari ishlatgan uygʻur xatini yaxshi bilgan. Hatto oʻsmirlik chogʻlarida uygʻur xatida sheʼrlar ham yozgan boʻlishi kerak. Shoirning oʻsha sheʼrlari keyinchalik arab xatiga oʻgirilib, devonlarga kiritilgan. Biroq alohida varaqlarga uygʻur xatida bitilgan sheʼrlarining qoʻlyozmalari esa bor-bora yoʻqolib ketgan. Shoir Baxtiy foydalangan qoʻlyozma esa yoʻqolmay qolgan oʻsha sheʼrlardan biri edi, xolos.

Navoiyning ilkin, alohida varaqqa oʻz qoʻli bilan yozilgan sheʼrlari saqlanib qolmagani ham ana shunday fikrga yoʻl beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi fanda «uygʻur xati» deb atalayotgan qadimgi turkiy yozuv Temuriylar davrining muhim va yetakchi yozuvlaridan biri edi. XV yuzyilning oʻrtalariga qadar bu yozuv arab xati bilan yonma-yon ishlatilgan. Shunga koʻra, bu davrlarda yaratilgan turkiy yozma yodgorliklar ikki xil – uygʻur va arab yozuvlarida yetib kelgan.

Temuriylar davri yozma merosini, oʻsha davr oʻzbek yozma adabiy tili va adabiyoti, kitobat sanʼati va yozuv madaniyati tarixini uygʻur yozuvli qoʻlyozmalarsiz oʻrganish mumkin emas.

Uygʻur alifbosi ixcham bir koʻrinishda tuzilgan boʻlib, undagi harflarning aytarli bari polifonik xususiyatga ega. Turkiy xalqlar oʻtmishda foydalangan alifbolarning eng ixchami ham uygʻur alifbosi edi. Uning imlo prinsiplari juda oʻylab ishlab chiqilgan. Oʻtmish yozuv amaliyotining tajribasi shuni koʻrsatadiki, yozuvning qulay yoki oʻngʻaysizligi, tilning fonetik-fonologik tizimiga qay darajada javob berganligi alifbodagi harflarning oz-koʻpligida emas, balki imlo qoidalarining qanday tuzilganligiga bogʻliq ekan.

Qiyin boʻlishiga qaramay, uygʻur xati yuz yillar osha qadimgi va eski turkiy til, keyinchalik esa eski oʻzbek yozma adabiy tilining talab va imkoniyatini qondirib, bobolar yaratgan maʼnaviy merosni, bitiklarga bitilgan otalar tarixini, ularning tabarruk oʻgitlarini kelgusi avlodlarga yetkazib keldi.

Alisher Navoiy ota-bobolari ishlatgan uygʻur xatini yaxshi bilgan. Hatto oʻsmirlik chogʻlarida arab xati bilan bir qatorda, uygʻur xatida sheʼrlar ham yozgan boʻlishi kerak. Shoirning oʻsha sheʼrlari keyinchalik arab xatiga oʻgirilib, devonlarga

kiritilgan. Biroq alohida varaqlarga uygʻur xatida bitilgan sheʼrlarining qoʻlyozmalari esa bor-bora yoʻqolib ketgan.

Ushbu uygʻur yozuvli matnda shoirning taxallusi turkiy talaffuzga moslab *Navāyī* deb yozilgan. Tagidagi arab yozuvli shakli ham shunday: *nūn*, *vāv*, *alif*dan keyin ikkita *yā* yozilgan; *hamzasi* yoʻq. Navoiyning arab yozuvli boshqa devonlarida ham shuning oʻzi: ushbu taxallus eski qoʻlyozmalarda *نوايي* deb yozilgan. Shunga koʻra, uni *Navāyī* (bizning hozirgi imloda *Navoiy* / *Navoyi*) deb oʻqilgani va ana shunday talaffuz qilingani toʻgʻri.

Navoiyning yuqorida qayd etilgan uygʻur yozuvli gʻazalini shoir Baxtiy koʻchirgan, unga nazira ham bitgan.

Yanada muhimi, Navoiyning ushbu gʻazali arab yozuvli emas, uygʻur yozuvli boshqa bir qoʻlyozmadan koʻchirilgan. Asosiy qoʻlyozma ancha eski, shoirning yoshlik yillaridan qolgan koʻrinadi. Navoiyning yoshlik chogʻlarida uygʻur yozuvida bitgan bundan boshqa sheʼrlari ham boʻlgani aniq. Aftidan, Shayxzoda Abdurazzoq baxshi uchun Istanbulga joʻnatilgan uygʻur yozuvli qoʻlyozmalar orasida oʻshalardan biri ham bor edi. Shoir Baxtiy ana oʻsha matndan nusxa koʻchirgan koʻrinadi.

Temuriylar davriga oid uygʻur yozuvli qoʻlyozmalarni aniqlash va ilmiy jihatdan oʻrganish oʻzbek adabiyotshunosligi va turkologiyasi uchun muhim ahamiyatga ega. Bu yoʻnalishda xalqaro arxivlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, ekspeditsiyalar tashkil etish maqsadga muvofiq. Shuningdek, uygʻur yozuvining oʻzbek madaniyati tarixidagi rolini keng jamoatchilikka yetkazish, muzeylarda koʻrgazmalar tashkil etish, oʻquv dasturlariga uygʻur yozuvi haqida maʼlumotlar kiritish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. “Badoeu-l-vasat”- Istanbul Toʻpqopi saroyi muzeyi kutubxonasi, Revan 808-koʻrsatkichli Navoiy kulliyoti. – B. 540a–596b.
2. Мирзо Мухаммад Хайдар Аёзий. (2011). Тарихи Рашидий / Нашрга тайёрловчи, сўз боши, тадбил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи О. Жалилов. – Тошкент.
3. “Munshaot”- Fransiya Milliy kutubxonasida saqlanayotgan asar. 317/1513 koʻrsatkichli Navoiy kulliyoti. – B. 387b–406a.
4. Рустамов А. (1976). Ибн Арабшоҳ туркий ёзувлар ҳақида // Адабий мерос, № 5 – Б. 39–42.
5. Sertkaya O.F. (1973). Osmanlı Şâirlerinin Çağatayca Şiirleri. III. Uyğur Harflariyle Yazılmış Bazi Manzum Parçalar. I. – İstanbul.
6. Sertkaya O.F. (1977). İslâmî Devrenin Uyğur Harfli Eserlerine Toplu Bir Bakış. – Bochum.
7. Содиков Қ. (1992). XI–XV аср уйғур ёзувли туркий ёдгорликларнинг график-фонетик хусусиятлари. Докторлик диссертацияси. – Тошкент.

8. Содиқов Қ. (2016). Илк ва ўрта асрларда яратилган туркий хужжатлар. – Тошкент.

9. Щербак А. (1962). Грамматика Староузбекского языка. – Москва, Ленинград.

REFERENCES:

1. “Badoeu-l-vasat”- Istanbul To‘pqopi saroyi muzeyi kutubxonasi, Revan 808-ko‘rsatkichli Navoiy kulliyoti. – B. 540a–596b.

2. Mirzo Muhammad Haydar Ayoziy. (2011). Tarixi Rashidiy / Nashrga tayyorlovchi, so‘z boshi, tadbil, izohlar va ko‘rsatkichlar muallifi O. Jalilov. – Toshkent. (In Uzbek)

3. “Munshaot”- Fransiya Milliy kutubxonasida saqlanayotgan asar. 317/1513 ko‘rsatkichli Navoiy kulliyoti. – B. 387b–406a.

4. Rustamov A. (1976). Ibn Arabshoh turkiy yozuvlar haqida // Adabiy meros, № 5 – B. 39–42. (In Uzbek)

5. Sertkaya O.F. (1973). Osmanlı Şâirlerinin Çağatayca Şiirleri. III. Uygur Harflariyle Yazılmış Bazi Manzum Parçalar. I. – İstanbul. (In Turkish)

6. Sertkaya O.F. (1977). İslâmî Devrenin Uygur Harfli Eserlerine Toplu Bir Bakış. – Bochum. (In Turkish)

7. Sodiqov Q. (1992). XI–XV asr uyg‘ur yozuvli turkiy yodgorliklarning grafik-fonetik xususiyatlari. Doktorlik dissertatsiyasi. – Toshkent. (In Uzbek)

8. Sodiqov Q. (2016). Ilk va o‘rta asrlarda yaratilgan turkiy hujjatlar. – Toshkent. (In Uzbek)

9. Sherbak A. (1962). Grammatika Starouzbekskogo yazika. – Moskva, Leningrad. (In Russian)

Oriental universitetining “Al-Buxoriy” nomli jurnali

Jurnal Oliy o‘quv yurtlari hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan. Maqola muallifining fikri tahririyat fikrini ifodalamaydi.

AL-BUXORIY AL-BUKHARI

Bosh muharrir: **Farhod Maksudov**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Malika Nasirova**

Mas’ul muharrir: **Govhar Rahmatova**

Musahhih: **Gulida Norkulova**

Manzil: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Norzatepa ko‘chasi, 52.

Telefon: +998 93 004-57-77. E-mail: al-buxoriy@orientaluniversity.uz

“AL-BUXORIY” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining

№ 111741 raqamli guvohnomasi bilan

ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Oriental universiteti Kengashining 2025-yil 29-avgust, 3-sonli yig‘ilish bayonnomasiga asosan nashrga ruxsat etildi.